

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
Norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirish-
ning istiqbolli yo'nalishlari
- 17 **MUSTAFAQULOV DILSHOD
SALOMOVICH**
Huquq prinsiplari va uning huquqiy tizimda
tutgan o'ri

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 25 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
O'zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi
davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni
qo'llashning ayrim masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 39 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**
Реформирование процесса защиты
диссертаций в юридической науке
как императив развития правовой системы
Узбекистана
- 49 **MAMANAZAROV SARDOR
SHUXRATOVICH**
BIG DATA tushunchasi va huquqiy tabiati
- 57 **МАХАМАДХУЖАЕВА МУНИСАХОН
НЕЪМАТХУЖАЕВНА**
Особенности цифрового гражданского
оборота и защиты цифровых прав

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 64 **ЕРНИЯЗОВ ИСЛАМ РУСЛАНОВИЧ**
Взаимодействие международных строитель-
ных контрактов и договоров об инвестициях:
возможности для гармонизации коммер-
ческих и общественных интересов

- 76 **ABDURASULOVA QUMRINISA
RAIMKULOVNA**
BURANOVA RAZIYA YERMAHAMED QIZI
Jinoyatchilikni prognoz qilish va uni amalga
oshirish metodlari
- 88 **HAKIMOV KOMIL BAXTIYAROVICH**
Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib
qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini
aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari
- 98 **BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH**
Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning
sabablariga doir ilmiy yondashuvlar
- 106 **ISMAILOV AHMAD ISMAILOVICH**
Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish
darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan
shaxslarning kriminologik tavsifi
- 114 **SHONAZAROV ABDUVALI
SHONAZAROVICH**
Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli
qog'ozlarni soxtalashtirish, ko'chirilgan
dastxatlar, hujjatlarning o'zgartirilganligi
bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 121 **ATANIYAZOV JASURBEK
KURBANBAYEVICH**
Jinoiy javobgarlikdan ozod etishda
javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi
asosi: muammo va yechimlar

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

131 **SAYFULLAYEV BAHODIR
BAXROMOVICH**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan jinoyat ishlarida himoyachining ishtirokini takomillashtirish

140 **ЭРКАБОВ АЗИЗБЕК АСИЛБЕКОВИЧ**

Интеграция Республики Узбекистан в глобальную систему контроля за наркотиками

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./PDZH5441>
UDC:347.934(045)(575.1)

HUJJATLARNI QALBAKILASHTIRISH VA QIMMATLI QOG‘OZLARNI SOXTALASHTIRISH, KO‘CHIRILGAN DASTXATLAR, HUJJATLARNING O‘ZGARTIRILGANLIGI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI ANIQLASH

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0003-2729-526X
e-mail: abduvalitogayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda xorij amaliyotining muhim jihatlari yoritilgan. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar hozirgi zamonda eng keng tarqalgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Texnologiya yangiliklari ko‘paygan sari undan foydalanish imkoniyatlari oshib boradi. Ayniqsa, hozirgi zamonda hujjatlarning haqiqiyiligini saqlovchi xavfsizlik baland bo‘lishiga qaramay ularni qalbakilashtirish yo‘llari texnologiya sababli hali ham mavjuddir. Ushbu jinoyatning dolzarbligi shundaki, hujjatlarni soxtalashtirish faqatgina ijtimoiy xavfliligi bilangina dolzarb emas, balki uning zarari ham shaxsga, ham davlatga birdek zarar yetkazadi. Shuningdek, ko‘chirilgan dastxatlar va hujjatlarning o‘zgartirilganligi yoki yaratilgan elementlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu turdagi jinoyatlar tobora shiddat bilan o‘sib bormoqda. Ya‘ni insonlar uchun joriy etilayotgan yangi turdagi qulayliklarni “uchar jinoyatchilar” o‘zlashtirib (QR kod va muhrlar) o‘zlarining maqsadlari yo‘lida foydalanishmoqda. Maqolada xorijlik mutaxassislarining yuqoridagi mavzuga oid fikr mulohazalarini ko‘rish mumkin. Ayni vaqtda jamiyatning har bir a‘zosi o‘z xatti-harakatini qonuniyligini ta‘minlash uchun hujjatlarga murojaat qilishi odatiy holdir. Hujjatlardan bunday keng usulda foydalanish jinoyatchilarning e‘tiborini tortishi tabiiy holdir.

Kalit so‘zlar: QR kod, muhr, shtamp, fotosensitiv imzo muhri, Image processing, Mikrospektrofotometriya, CNN modellar.

ВЫЯВЛЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОДДЕЛКОЙ ДОКУМЕНТОВ И ЦЕННЫХ БУМАГ, КОПИРОВАНИЕМ ПОДПИСИ И ИЗМЕНЕНИЕМ ДОКУМЕНТОВ

Шоназаров Абдували Шоназарович,
преподаватель Кашкадарьинского областного
юридического техникума

Аннотация. В данной статье освещены важные аспекты зарубежной практики расследования преступлений, связанных с подделкой документов и ценных бумаг. Преступления, связанные с подделкой документов и ценных бумаг, относятся к числу наиболее распространённых преступлений современности. По мере развития технологий расширяются и возможности их использования. Несмотря на высокий уровень безопасности, защищающий подлинность документов, особенно в наше время, всё ещё существуют способы их подделки вследствие развития

современных технологий. Актуальность данного преступления заключается в том, что фальсификация документов актуальна не только в силу своей общественной опасности, но и в силу причинения вреда личности и государству. Также важно выявить изменённые или созданные элементы скопированных подписей и документов, так как этот вид преступлений становится всё более жестоким. То есть находчивые преступники внедряют и используют новые типы инструментов (QR-коды и печати) для достижения своих целей. В статье приведены мнения зарубежных специалистов по рассматриваемой теме. При этом отмечено, что каждому члену общества свойственно обращаться к документам для обеспечения законности своих действий. Вполне естественно, что такое широкое использование документов привлекает внимание преступников.

Ключевые слова: QR-код, печать, штамп, светочувствительная подпись, Image processing (обработка изображений), микроспектрофотометрия, модели CNN.

DETECTION OF OFFENCES RELATED TO FORGERY OF DOCUMENTS AND SECURITIES, COPYING OF SIGNATURES, AND ALTERATION OF DOCUMENTS

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Teacher of Kashkadarya Regional Legal Technique

Abstract. This article highlights important aspects of the foreign practice of investigating crimes related to the forgery of documents and securities. Crimes related to the forgery of documents and securities are among the most widespread crimes of our time. With the development of technologies, the possibilities of their use are expanding. Despite the high level of security protecting the authenticity of documents, especially nowadays, there are still ways to forge them thanks to modern technology. The relevance of this offense lies in the fact that falsification of documents is relevant not only because of its public danger but also because of the harm caused to the individual and the state. It is also important to identify altered or created elements of copied signatures and documents, as this type of crime is becoming more and more violent. That is, resourceful criminals introduce and use new types of devices (QR codes and stamps) to achieve their goals. In the article, the opinions of foreign specialists on the considered theme are given. It is noted that it is peculiar for every member of society to address the documents to ensure the legality of their actions. It is quite natural that such a wide use of documents attracts the attention of criminals.

Keywords: QR code, seal, stamp, photosensitive signature, image processing, microspectrophotometry, CNN models.

Kirish

Insonlar jamiyat sifatida o'zaro ijtimoiy munosabatlar o'rnata boshlaganlaridan boshlab ushbu munosabatlarning vositasi o'laroq yozuvni, shu bilan birga, hujjatlarni ham yaratib boshlaganlar. Yuridik jihatdan muayyan munosabatlarda hujjatlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Hujjatlar jamiyatda muhim o'rin egallaydi. Shu boisdan hujjatlar bilan bog'liq munosabatlar keng va murakkabdir. Shunday ekan, hujjatlar bilan bog'liq munosabatlarda hujjatlarni tayyorlash va g'ayriqonuniy ravishda soxtalashtirish va qalbakilashtirish institutini o'rganish muhim ahamiyat kasb eta-

di. Shuning uchun, avvalambor, "hujjatlar" va "hujjatlarni qalbakilashtirish" tushunchasini bilib olishimiz lozim.

Ingliz yozuvchisi, olim Katirina Kopenhaver "Forensic documents examination: Practice and Principle" asarida bayon qilganidek, soxtalashtirish san'ati xuddi alifbo kabi qadimiydir [1].

Olim V.S. Postnikovning fikriga ko'ra, soxta hujjatlarni tayyorlash – ma'lum bir turdagi rasmiy hujjatlar (ishlab chiqarish, o'zgartirish)ni yaratib, buzib, zararli yoki noto'g'ri ma'lumot (berish, tarqatish, foydalanish)lardan iborat bo'lgan axborotlarni o'z ichiga ol-

gan hujjatlarni noqonuniy tayyorlash orqali amalga oshiriladigan jinoiy qalloblikning bir shaklidir [2]. Hujjatlarni tayyorlash ma'lum protsessni qamrab oladi. Bu harakatni qamrab oluvchi tushuncha bo'lmaganligi uchun ham hujjat haqida aniq ta'rif yuridik adabiyotlarda uchramaydi. Hujjatlarni tayyorlash, jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan soxta hujjatlarni ishlab chiqishni qamrab oladi. Qonunchilikda jinoiy motiv, maqsaddan kelib chiqqan holda belgilangan tartib va normalar asosida ishlab chiqilmagan, tayyorlanmagan hujjatlar qalbaki hujjatlarni tayyorlash hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi birinchi qismiga ham e'tibor beradigan bo'lsak, bu moddada "soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi" tarzida bayon etilgan.

Hujjatlarni soxtalashtirish – hujjatlarga qalbaki ma'lumotlar kiritish va undan foydalanishdir. Shuningdek, hujjatlarni soxtalashtirish deganda hujjatlarga o'zgartirish kiritish, qo'shimchalar kiritish va yolg'on ma'lumotlar kiritish hamda ularni tayyorlash tushuniladi. Jismoniy va yuridik shaxs hujjatni taqdim etib yoki ko'rsatib, o'zining har qanday maqsadini (o'z vakolati va hujjatda yo'l qo'yilgan vakolat doirasida) amalga oshirishi mumkin, bu muayyan huquq beradigan hujjatlar sanaladi. Muayyan majburiyatdan ozod etadigan hujjat deganda esa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi hamma uchun bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkinligi tushuniladi. Masalan, transportda yo'l haqi to'lashdan, soliq to'lashdan va hokazo majburiyatlarni bajarishda to'la yoki qisman ozod etadigan hujjatlarni tushunish mumkin [3].

Material va metodlar

Nega metodlar turlicha va nega ular davlatlarda va mutaxassislar tomonidan bir xil yo'sinda foydalanilmaydi? Chunki mutaxassislar turli bilim va ko'nikmalarga ega. Har bir

mutaxassis bitta metoddan foydalana olmadi. Shuning uchun metodlar ko'p va ularni qo'llash usullari ham har xil. Ingliz yozuvchisi Jeyn Lewis o'zining "*Foresic Document Examination*" asarida mana shu metodlardan ko'plarini misol qilib keltirib o'tgan [4]. Ulardan biri ACE metodi. Bu metod kanadalik ekspert Roy Huber tomonidan ishlab chiqilgan metod bo'lib, ACE metodi quyidagilarni qamrab oladi: 1) analiz, 2) taqqoslash, 3) baholash.

Bu metodni Roy Huber 1959-yilda "Criminal Law Quarterly" jurnalida chop qilingan o'zining maqolasida batafsil bayon qilgan. U mazkur metodni quyidagicha ta'riflaydi:

1. *Analiz*. Noma'lum manba uning xarakteristikasi va boshqa xususiyatlari bilan klassifikatsiya qilinishi lozim. Bu xususiyatlar ko'rib, ushlab va his qilib bo'ladigan bo'lishi lozim. Lekin bu xususiyatlar butunning bir qismi bo'lishi lozim.

2. *Taqqoslash*. Uning tasviriy effektlari, subyektiv illyuziyalari va hujjatda mavjud belgilarni bir-biriga solishtirish orqali individual xarakterga ega elementlar aniqlanadi.

3. *Baholash*. Doim ham analiz va taqqoslash aniq javob olish uchun yetarli bo'lmaydi. Shunda hujjatdagi har bir xususiyat uning ko'p takrorlanganligi va tartibi alohida tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqot natijalari

Shuningdek, imzo va QR kodlarni qalbakilashtirish va soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni quyidagicha tahlil qilamiz.

Sud-xatshunoslik ekspertizasi tomonidan qabul qilinadigan eng keng tarqalgan tergov bu imzo tahlilidir. Chunki hujjatlar imzo va muhr bilan yuridik kuchga ega bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda soxtalashtirishlarning eng keng tarqalgan va oddiy usuli o'zganing imzosini soxtalashtirish orqali hujjatlarga o'zgartirish kiritishdir. Kaleforniyalik olim hujjatlar bo'yicha ekspert Ketil Karlson shaxsiy veb-saytida hujjatlarni tekshirishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida tajribalarini bo'lishadi: "Hujjatni tekshiruvchi uchun imzolarni tahlil qilish va taqqoslash


tartib-qoidalari hujjat turi masalasidan qat'i nazar, izchil bo'ladi. Mening birinchi qadamim muammoli hujjatning asl nusxasini talab qilishdir. Siz tasavvur qilganingizdek, imzolar barmoq izi kabi noyobdir. Ular o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ikkitasi mutlaqo bir xil bo'lmaydi. Imzolarni tahlil qilish jarayonini yakunlash uchun hujjat tekshiruvchisiga ma'lum imzolarning bir nechta misollari kerak bo'ladi. Masalan, o'zingizning imzolaringizni ko'rib chiqing; ular bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularning tashqi ko'rinishi bir-biridan farq qilishini sezasiz. Shu sababli hujjatni tekshiruvchiga yozuvchi uchun o'zgaruvchanlik diapazoni va agar tekshirilayotgan imzo shu diapazonga to'g'ri kelsa, aniqlashga yordam beradigan bir nechta imzo namunalari kerak bo'ladi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun hujjat ekspertizasi imzolangan vaqtga yaqin sanasi bo'lgan hujjatlar so'ralishi tavsiya etiladi" [5].

Fotosensitiv imzo muhri yordamida imzolarni soxtalashtirish. Imzolar tekshiruvchi har qanday hujjatlar tekshiruvchisi tomonidan o'tkaziladigan eng keng tarqalgan ishdir. Tahlil qilinayotgan hujjatdagi qo'lda yozilgan imzoning haqiqiylikni aniqlash sud ekspertizasi sohasidagi sud hujjatlari ekspertlari uchun muhim vazifadir. Texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi natijasida endi qo'lda yozilgan imzoni ko'paytirishni ta'minlash uchun fotosensitiv muhr yordamida imzo muhri yaratilishi mumkin. Ushbu markalar odatda Xitoy va boshqa bir qator mamlakatlarda qo'llanadi. Bundan tashqari, Mikroskopik tahlil, infraqizil (IQ) va lyuminessensiya tahlillari va Mikrospektrofotometriya (MSP) texnikasi bosma qog'ozlarga, yozuv qog'ozlariga va hisob-faktura qog'ozlariga qo'llanganda olingan fotosensitiv imzo muhri tekshirish uchun ishlatilgan. Tahlil qilingan hujjatda qo'lda yozilgan imzoning haqiqiylikni aniqlash sud-xatshunoslik ekspertizasining muhim jihati hisoblanadi va birinchi qadam imzo yozuv siyohi yordamida yaratilganligini aniqlashdir. Imzoni aniqlash yoki uning haqiqiylikni isbot-

lash ko'plab huquqiy qarama-qarshiliklarning muhim jihati bo'lgan. Ba'zan fotosensitiv imzo muhrlari shunchalik puxtalik bilan yaratiladiki, ular ko'picha insonlar ilg'ay olmaydigan darajada aniq qilib ko'chiriladi (1-, 2-rasmlar).



1-rasm. Idishchada saqlanadigan fotosensitiv shtamp siyohi (A), fotosensitiv imzo shtampining ostki yuza qismi (B), fotosensitiv shtampning to'liq ko'rinishi (C)



2-rasm. Fotosensitiv shtamp tomonidan yaratilgan imzo (A), qo'lda yaratilgan imzo (B)

Fotosensitiv imzo muhri yaratish uchun avval qo'lda yozilgan imzoni tashqi kirish moslamasi orqali kompyuterga skanerlash kerak. "Image processing" dasturidan kerak bo'lganda imzo tasvirini tahrirlash va sozlash uchun foydalanish mumkin. Keyin tahrirlangan imzo shtampi naqshlari monoxromatik lazer yordamida yozilgan qog'ozga yoki shaffof plyonkaga bosiladi. Yozilgan qog'ozga yoki shaffof plyonkaga bosilgan imzoning plitasi fotosensitiv shtamp yostig'iga joylashtirildi va ular fotografik tasma yaratish uchun birlashtiriladi. Ushbu ta'sirdan so'ng tasvirning noaniq qismi mikro teshiklarni to'sib qo'yadigan va yog'ning unga kira olmasligini ta'minlaydigan o'ziga xos qalinligi va kuchiga ega qora plyonka hosil qiladi. Imzo qismidagi fotosensitiv material fotosensitivlikni bosh-

dan kechirmagan va shuning uchun asl holatida qoladi.

Nihoyat, ochiq fotosensitiv yostiqliq maxsus siyoh bilan to'ldiriladi. Shtamplash jarayonida yostiqlikdagi siyoh mikroporlar orqali o'tib, imzo hosil qilinadi.

QR kodlarni soxtalashtirish. QR kodlari (tezkor javob kodlarining qisqartmasi) dastlab avtomobilsozlik sanoatida zavod zaxiralari va logistikasini kuzatish uchun ishlab chiqilgan, ammo so'nggi bir necha yil ichida smartfonlar va mobil telefon kameralarining keng qo'llanishi tufayli ularning mashhurligi sezilarli darajada kengaygan. QR kodlari inventarizatsiya, reklama, elektron chiptalar va mobil to'lovlarini kuzatish kabi turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin. QR kodlari ma'lum vaqt davomida ma'lumotlarni, shu jumladan, URL manzillarini saqlash va almashishning mashhur hamda qulay usuli bo'lib kelgan. Ular osongina ishlab chiqarilishi mumkin, shuningdek, ular ishonchli va ulardan foydalanish arzon. Smartfon kamerasi yordamida skanerlashda QR kod foydalanuvchini klaviatura yordamida URL manzilini qo'lda kiritmasdan tezda ma'lum bir veb-saytga yoki veb-sahifaga yo'naltirishi mumkin. Bu QR kodlarini marketing, reklama va elektron chiptalarni o'z ichiga olgan turli xil ilovalar uchun qulay vositaga aylantiradi. Garchi ular ma'lumotni saqlash va almashish uchun qulay va keng qo'llansa-da, ularning mavjudligi ularni osonlikcha soxtalashtirish mumkinligini anglatadi.

AQShda raqamli sud ekspertizasi bosma hujjatlarning to'g'ridan to'g'ri aloqalarini, shu jumladan, QR kodlarini tanib olish uchun ishlatilishi mumkin, bu soxta hujjatlarni tekshirish va qalbakilashtiruvchilarni ta'qib qilish uchun muhimdir. Jarayon manba printerlari va dublikatlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun optik mexanizmlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Kompyuterni ko'rish va mashinani o'rganish texnikasi, masalan, konvolutsion neyron tarmoqlar (CNN), identifikatsiyalashning aniqligini oshirish uchun statistik xususiyatlarni o'rganish va umumlashti-

rish uchun amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tadqiqot ALEXNET, DenseNet201, GoogleNet, MobileNetv2, ResNet, VGG16 va boshqa CNN modellarini QR kodlarining printer manbalarini yuqori aniqlik bilan aniqlay olish qobiliyatini oshirdi. Ular orasida moslashtirilgan CNN modeli kamroq hisoblash kuchi va mashg'ulot vaqti bilan kulrang va rangli QR kodlarining bosma manbalarini aniqlashda yaxshiroq natijalarni ko'rsatdi.



3-rasm.

QR kod – matritsa kodi sifatida tasniflangan ikki o'lchovli shtrix-kod belgisi. U "modullar" deb nomlanuvchi qora va oq kvadratlardan iborat, qora kvadratlar 1 qiymatini va oq kvadratlar 0 qiymatini ifodalaydi. QR kodlarining 40 ta versiyasi mavjud bo'lib, ularning eng kichigi – 21 x 21 kod elementlardan iborat. Har bir versiya tomonlar elementlar sonini 4 tagacha ko'paytirib kattalashib boradi. 40-versiya 177 x 177 modulga ega bo'lib 31,329 ta koddan tashkil topadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Metodlar qalbakilashtirilgan hujjatlar va soxtalashtirilgan qimmatli qog'ozlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatlar bilan bog'liq jinoyatlar o'ta murakkabdir. Ba'zan ekspert faqatgina imzoni tahlil qilishdan tortib o'n, ba'zan yigirma betlab qog'ozlarni tahlil qilishi kerak bo'ladi. Chunki ekspertlar tomonidan qabul qilingan dalillarda qog'ozlarda yashirin tahdid – soxtalashtirish alomatlari yashiringan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bunday jinoyatlarni tergov qilish puxtalik va sinchkovlikni talab qiladi. Metodlar esa bu jarayonning ekspertlarga osonroq va tezroq bo'lishini ta'minlaydi. Soxta

hujjatlar va qimmatli qog'ozlar tergovi uchun metodlar turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

ACE metodi hujjatlar tergovi ekspertlari uchun yozuv elementlarini ifodalashda eng oddiy va oson konsepsiyadir. Yozuv elementlari tahlil qilinganda yanada ko'proq belgilar fosh bo'ladi. Bu belgilar orasida yozuvdagi qisqartmalar, harflarning bir tekisda turishi, tartib va ketma-ketlik, formatlash, yozuvning joylashtirilishi, yozuvda bosh harflarning ishtiroki, harflarning ulanganlik yoki ulanmaganlik darajasi, chiziqalar va nuqtalar, tinish belgilari, zarbalar yo'nalishi, niqoblash, bezaklar, shakllantirish, ijro erkinligi, qo'l, chiziq sifati, usuli, ishlab chiqarish, qalamni ushlab va qalam holati, umumiy bosim va bosim naqshlari, urg'u, mutanosiblik, soddalashtirish hajmi, mahorat, qiyalik, oraliq, tezlik, yozuv turi va o'zgaruvchanlik diapazoni kabi yozuvning individual xarakteristikasini ochib beruvchi belgilar topiladi. Yozuv qurolining ko'tarilishi, to'xtashi va ikkilanishi kabi boshqa xususiyatlar, shuningdek, yamoq, chiziqning sekin, chizilgan sifati, g'ayritabiiy titroq va turli shakllardagi ko'rsatmalar mavjud bo'lganda baholanishi

kerak. Hujjatlar haqidagi savollarga, shuningdek, bilim, mahorat, tajriba, trening yoki maxsus ta'lim sud hujjatlari ekspertizasi, shuningdek, boshqa bir qator sohalar, masalan, fizika fanlari, matematika, tilshunoslik va boshqalar orqali javob beriladi.

Xulosalar

Jinoiy guruhlar tomonidan yuqoridagi jinoyatlar keng qo'llanganligi sababli ularga qarshi rivojlangan davlatlardagi metodlarni mamlakatimizda joriy etish orqali mavjud muammolarga yechim topgan bo'lardik. Hozirgi kunda texnologiya namunalari rivojlanib borayotganligi sababli sun'iy intellekt inson qilishi mumkin bo'lgan ko'p ishlarini tezroq va sifatliroq bajarmoqda. Hozir hujjatlarni identifikatsiya qilib bera oladigan ko'plab platformalar va veb-saytlar mavjud. Biz tergovchilar va ekspertlar mana shunday platformalar va veb-saytlardan kengroq foydalanishlarini taklif qilamiz. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari malakasini oshirish uchun xorijda amaliyot o'tashni tashkil etish yangi turdagi jinoyatchiliklarga qarshi kurashishda yaxshi samara beradi.

REFERENCES

1. Koppenhaver K.M. Forensic documents examination: Practice and Principle. Humana Press, 2007.
2. Postnikov V.S. O ponyatii dokumenta kak predmeta prestupleniya, predusmotrennogo st. 196 UK RSFSR [On the concept of a document as the subject of a crime under Art. 196 of the Criminal Code of the RSFSR]. Improving law enforcement activities of internal affairs bodies. Moscow, 1990, p. 97.
3. Ermatov G.A. Rasmiy hujjatlarni jinoyat-huquqiy muxofaza qilish muammolari [Problems of criminal-legal protection of official documents]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2007, p. 87.
4. Lewis J.A. Forensic Document Examination. Fundamentals and current trends. 2018.
5. Forensic Examination Provided. Available at: <https://www.westernforensicdocumentexaminer.com>
6. Methodology of crime investigation. The team of authors. Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2017, p. 184.
7. Criminalistics textbook. The team of authors. Tashkent, 2018.
8. Abdumajidov F. et al. Criminalistics. Tashkent, Adolat Publ., 2003, 362 p.
9. Sottiyev I.A. Qualification of crimes committed by organized groups. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2012.

10. Chainey S.P., Berbotto A.A. A structured methodical process for populating a crime script of organized crime activity using OSINT. 2021.
11. Ohr B.G. Effective methods to combat transnational organized crime in criminal justice processes.
12. Nickel J. Detecting Forgery. Forensic investigation of documents. University of Kentucky, 2005.
13. Saferstain R. Criminalistics: an Introduction to Forensic Science. P. 59.
14. Li Z., Liu X. An examination of hand written signatures forged using photosensitive signature stamp. Department of Documents Examination, Criminal investigation Police University of China, Shenyang. China, 2021.
15. Tsai M.-J., Lee Y.-C., Chen T.-M. Implementing Deep Convolutional Neural Networks for QR Code-Based Printed Source Identification. Institute of Information Management, National Yang Ming Chiao Tung University. Taiwan, 2023.
16. Al-Ameri M.A.A., Mahmood B., Ciylan B., Amged A. Unsupervised Forgery Detection of Documents: A Network-Inspired Approach. Graduate School of Natural and Applied Sciences, Gazi University. Ankara, Turkey, 2023.
17. Saharan S., Yadav A.K., Novel B.Y. C stain-based chemical method for differentiating real and forged fingerprints. *Egyptian Journal of Forensic Sciences*, 2020.
18. Counterfeiting Stamps or Postal Effects. *Journal of Juridica*. Romania, 2020.
19. Lozovsky D.N. Otdel'nye voprosy kriminalisticheskogo analiza organizovannykh prestupnykh grupp [Selected issues of forensic analysis of organized criminal activity]. Forensics and forensic activity' in modern conditions, 2016, p. 75.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafoyev

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 27.09.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,3 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 71.
TDYU tipografiyasida chop etildi.